

**OILAVIY POLIKLINIKALARIDA DOIMIIY NAZORATDAGI
BEMORLARNI NAZORAT QILUVCHI WEB SAYTINI
LOYIHALASHTIRISH**

Toxirova Sarvinoz G'ayratjon qizi

Isaxonov Xushnidbek Murodiljon o'g'li

Siddiqov Murodali Yo'ldoshali o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona Filiali

***Annotatsiya:** ushbu maqolada oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punkti, birinchi tibbiy-sanitar yordamlarni ko'rsatuvchi muassasalarda xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "O'zMedInfo" elektron sog'liqni saqlashni rivojlantirish respublika markazi, Sog'liqni saqlash vazirligining 2017-yil 17-avgustdagi "Yagona elektron ro'yxatga olish va Internet tarmog'i orqali shifokor qabuliga yozilish "Elektron poliklinika" avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)ni ishga tushirish to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq, poytaxtimizdagi aksariyat oilaviy poliklinikalarda markazlashgan ma'lumotlar bazasi, elektron ambulator kartalar va kasallik tarixi kabilarga ega tizim faoliyati yo'lga qo'yilganligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy web sayti orqali fuqarolar shifokor qabuliga yozilishi, shifokor va muassasa haqida ma'lumot olishi mumkinligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** oilaviy poliklinika, birinchi tibbiy-sanitar yordamlar, muassasalar, O'zMedInfo, Elektron poliklinika, avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT).*

Oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punkti o'ziga birlashtirilgan mahalla, qishloq, daha va boshqa joylardagi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadigan sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inlari bo'lib hisoblanadi. Birinchi tibbiy-sanitar yordam tizimini isloh qilishdagi asosiy o'zgarishlar qatoridan – qishloq vrachlik

punktlari, oilaviy va ko'p profilli poliklinikalarda ish vaqtining 8:00 dan 20:00 ga qadar uzaytirilishi hamda kun-u tun ishlovchi mobil, yaxshi ta'minlangan tez yordam podstansiyalarining tashkil etilishi o'rin olgan.

Birinchi tibbiy-sanitar yordamlarni ko'rsatuvchi muassasalarda xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, aholi, ayniqsa, qishloq fuqarolari salomatligi holati bo'yicha patronaj tizimini yaxshilash Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-martda imzolangan qarorining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Qarorda fertil yoshidagi, homilador ayollar, bolalar hamda surunkali kasalliklarga chalingan yolg'iz keksalar va nogironlar, shuningdek, doimiy parvarish va ijtimoiy yordamga muhtoj boshqa shaxslar o'rtasida doimiy patronaj ishlarni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Birinchi tibbiy yordam aholi bilan ogohlantirish, profilaktik va patronaj ishlash tizimiga aylantiriladi. Qaror bilan 2017–2021 yillarda birinchi tibbiy-sanitar yordam muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlandi. 1-oktabrdan QVP va qishloq oilaviy poliklinikalarida ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning to'laqonligi va sifatini reyting baholash, bunda xodimlar faoliyatiga qo'yilgan baholar asosida ular mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Qarorda qayd etilishicha, tibbiyot muassasalarining nomuvofiq joylashtirilishi natijasida bir aholi punkti tezkor tibbiy yordamdan mahrum etilishi, boshqasida esa ularning bir-birining vazifasini takrorlab qolishiga olib kelgan.

QVPlar soni 2985 tadan 1612 tagacha kamaytirilib, 793 ta QVP bazasida kunduzgi statsionarga ega qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etilmoqda. Ular bilan bog'liq ravishda «Dori-darmon» dorixonalar tizimi tashkil etilib, arzon va sifatli dori vositalari hamda tibbiy buyumlar savdosi yo'lga qo'yilmoqda. Tez yordam tarmog'i qisqartirilayotgan 441 ta QVP bazasida yangi podstansiyalar tashkil etilishi hisobga kiritiladi. Qisqartirilayotgan 658 ta QVP shifokorlar uchun xizmat turar joyi sifatida foydalanilishi uchun taqdim etilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "O'zMedInfo" elektron sog'liqni saqlashni rivojlantirish respublika markazi

faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan qisqa vaqt ichida sohaga axborot texnologiyalarini joriy etish, tizimda interaktiv xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida "Sog'liqni saqlash" axborot tizimlari majmuasini yaratish va sog'liqni saqlash milliy integratsiyalashtirilgan axborot tizimi (SSMIAT "Sog'liqni saqlash" ATM)ni rivojlantirishga qaratilgan ishlar shular jumlasidandir.

«O'zMedInfo» markazi tomonidan vazirlik tizimida fuqarolar murojaatlarini qabul qiluvchi 1003 qisqa raqamli «ishonch telefoni» hamda www.ssv.uz va www.pm.minzdrav.uz virtual qabulxonasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha inson huquqlarini himoyalash, aholi salomatligi sifatli himoya qilinishi darajasini nazorat qilib borish, tibbiy yordam sifatini yanada yuksaltirish, tibbiyot tizimi xodimlarining noqonuniy xatti-harakat sodir etishining oldini olishdir.

Sog'liqni saqlash vazirligining 2017-yil 17-avgustdagi "Yagona elektron ro'yxatga olish va Internet tarmog'i orqali shifokor qabuliga yozilish "Elektron poliklinika" avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT)ni ishga tushirish to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq, poytaxtimizdagi aksariyat oilaviy poliklinikalarda markazlashgan ma'lumotlar bazasi, elektron ambulator kartalar va kasallik tarixi kabilarga ega tizim faoliyati yo'lga qo'yildi.

Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy web sayti orqali (htr:reg.minzdrav.uz va ssv.uz) fuqarolar shifokor qabuliga yozilishi, shifokor va muassasa haqida ma'lumot olishi mumkin. Ayni paytda aholida tibbiy xizmat olingandan so'ng tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini baholash imkoniyati ham mavjud.

Tizim oilaviy poliklinikalarda avtomatlashtirilgan holda ro'yxatga olish, yagona elektron ambulator tibbiy kartani yuritish, aholiga esa onlayn usulda, ya'ni uydan chiqmasdan yashash joyi bo'yicha oilaviy poliklinika shifokori qabuliga yozilish, fuqaroga qulay vaqtda tekin tibbiy xizmat olish imkonini berishi bilan afzaldir.

2021-yilda elektron ambulator tibbiy kartaga bosqichma-bosqich o'tish ishlari boshlanishi rejalashtirilgan. Bu yangi innovatsion tizim shifokorning

ambulator tibbiy karta yozishga ketadigan vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Bundan tashqari, “Kadrlar resurslarini boshqarish”, “Muassasalarning pasport hisobi yagona tizimi” avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, shuningdek, donorlar va donorlikdan chetlatilgan shaxslar haqida, donorlik qonining hisoboti va taqsimlanishi kabi bir qator ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish bo’yicha axborot tizimi yo’lga qo’yildi. Kelgusida yuqumli kasalliklar epidemiologik monitoringi, psixonevrologik va narkologik dispanserlardan “Ma’lumotnoma olish uchun elektron ariza berish” avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Umuman, 2020-yilga qadar “Elektron sog’liqni saqlash” tizimi yo’lga qo’yilib, Sog’liqni saqlash vazirligi tomonidan “Yagona darcha” orqali ko’rsatiladigan xizmatlarning interaktiv usullariga o’tish yo’li bilan yurtimizda tibbiy xizmat sifati zamonaviy talablar darajasiga olib chiqildi.

Poytaxtimizda bugungi kunda 61 ta oilaviy poliklinika va 11 ta ko’p tarmoqli poliklinika mavjud bo’lib, oilaviy poliklinikalarning 56 tasida, ko’p tarmoqli poliklinikalarning esa 7 tasida mazkur tizim yo’lga qo’yilgan. Shuningdek, Namangan, Buxoro, Qarshi va Nukus shaharlaridagi oilaviy poliklinikalar ham ana shunday zamonaviy tizimda faoliyat ko’rsatayotgani e’tiborga molik.

Avvallari bunday jarayonni faqat xususiy klinikalardagina kuzatish mumkin edi. Hozirda barcha shifo maskanlarida ham “Elektron poliklinika” avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilgan. Bunda shifokor elektron ambulator kartasidagi avvalgi yozuviga o’zgartirish kiritishi ilojsiz ekanini ta’kidlash joiz. Tibbiyot muassasalarining bunday zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi aholiga tibbiy xizmat ko’rsatishni yanada samarali va tezkor tashkil etish imkonini bermoqda. Tez tibbiy yordamning tuman oilaviy poliklinikalariga birlashtirilgani faoliyatimiz sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Endilikda xonadonga borgan tez tibbiy yordam shifokori bemorning holati to’g’risida yozma chaqiruv qog’ozi orqali tuman oilaviy poliklinikasiga ma’lumot beradi va uchastka shifokori bemor holatini

jiddiy nazoratga oladi.

Yagona elektron ro'yxatga olish va internet tarmog'i orqali shifokor qabuliga yozilish "Elektron poliklinika" avtomatlashtirilgan axborot tizimi viloyatlarda ham bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Ayni paytda viloyatlarda 119 ta oilaviy poliklinika bo'lib, ularning 63 tasi "Elektron poliklinika" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ulangan. 184 ta markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalarning esa 23 tasida shunday tizim yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida joylardagi tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni malakali mutaxassis-kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, shifo maskanlari bosqichma-bosqich zamonaviy reanimobillar bilan ta'minlanib, mamlakatimizdagi tibbiyot oliy o'quv yurtlarini bitirgan yoshlar o'zlarining doimiy yashash joyiga yo'llanma asosida ishga yuborilayotgani yurtimizning barcha hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini yuksaltirish, eng muhimi, xalqimiz salomatligini ishonchli himoyalashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Авершьев, С. П., & Мамадалиев, Н. (2009). Применение модели пластического газа ХА Рахматулина для исследования процесса кратерообразования в плоской мишени при высокоскоростном ударе сферической частицы. *Космонавтика и ракетостроение*, (1), 134-144.
2. Qadamova, Z., Khakimov, A., & Sotvoldieva, D. (2023). APPLICATION OF LIST METHODS IN PRACTICE AND ITS ADVANTAGES. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(2), 43-47.
3. Toxirova, S. (2023). MA'LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR TUSHUNCHASI. *Engineering Problems and Innovations*.
ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1341>

4. Hakimov , A. (2023). MOBIL ILOVA RIVOJLANISHI. Engineering Problems and Innovations. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1336>
5. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI. (2023). Journal of Technical Research and Development, 1(2), 402-409. <https://jtrd.mcdir.me/index.php/jtrd/article/view/81>
6. Мамадалиев, Н. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ КРИТЕРИЕВ И ОГРАНИЧЕНИЙ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫХ К ПРОЦЕССУ И ОБРАБОТКИ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ:(сжатия цифрового потока видеосигнала в телевизионном канале связи). *Engineering problems and innovations*, 1(2), 38-42.
7. Мамадалиев, Н. А. (2020). Задача преследования для линейных игр с интегральными ограничениями на управления игроков. *Известия высших учебных заведений. Математика*, (3), 12-28.
8. МИКРОПРОЦЕССОРНЫЕ СИСТЕМЫ И ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ. (2023). Journal of Technical Research and Development, 1(2), 32-37. <https://jtrd.mcdir.me/index.php/jtrd/article/view/80>
9. Mahmudova , M., & Toxirova , S. (2023). MULTISERVISLI TARMOQ XAVFSIZLIGIDA NEYRON TARMOQLARINI O'RNI. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1540>
10. Hakimov , A. (2023). MOBIL ILOVA RIVOJLANISHI. Engineering Problems and Innovations. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1336>
11. D.B. Sotvoldiyeva, A.A.Hakimov, & Z.E.Qadamova. (2023). PYTHONNING NUMPY MODULI YORDAMI BILAN CSV FAYLLARNI O'QISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 7(2), 39–42. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/891>

12. Abdimahamatovich, H. A., & Anatolyevich, O. V. (2022). SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. *Journal of new century innovations*, 11(1), 195-202.
13. Обухов Вадим Анатольевич, Тохирова Сарвиноз Гайратжон кизи, & Исахонов Хушнидбек Муродилжон угли. (2023). ПРОГРАММЫ ДЛЯ РАСПОЗНАВАНИЯ ТЕКСТА. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 7(1), 52–57. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/749>
14. Mamadaliev, N. (2012). On the pursuit problem for linear differential games with distinct constraints on the players' controls. *Differential Equations*, 48(6), 867-880.
15. Мамадалиев, Н. А. (2010). О задачах преследования в линейных дифференциальных играх при наличии запаздываний. *Известия высших учебных заведений. Математика*, (6), 16-22.
16. Обухов Вадим Анатольевич, Тохирова Сарвиноз Гайратжон кизи, & Сотволдиев Асадбек Аброржон угли. (2023). МЕТОДЫ РАСПОЗНАВАНИЯ И ЭТАПЫ ОБРАБОТКИ ИЗОБРАЖЕНИЯ. *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 7(1), 40–44. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/757>
17. Muhammadjonov, A., & Toxirova, S. (2023). YARIMO 'TKAZGICHLARNING TURLARI. ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR. Research and implementation.
18. Авершьев, С. П., Липницкий, Ю. М., Макаревич, Г. А., Мамадалиев, Н., Пелипенко, Л. Ф., Половнев, А. Л., ... & Шokolov, А. Г. (2015). Пробой стенки гермоотсека космического аппарата высокоскоростной частицей с образованием акустических волн. *Ученые записки ЦАГИ*, 46(1), 42-51.
19. Хусанова, М. К., & Сотволдиева, Д. Б. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЕЦИМАЦИИ И ИНТЕРПОЛЯЦИИ ПРИ ОБРАБОТКЕ СИГНАЛОВ В ПРОГРАММЕ МАТЛАВ. In *ЦИФРОВОЙ РЕГИОН: ОПЫТ, КОМПЕТЕНЦИИ, ПРОЕКТЫ* (pp. 970-975).

20. Сотволдиева, Д. Б., & Хусанова, М. К. (2020). СРАВНЕНИЕ ФИЛЬТРОВ С КОНЕЧНОЙ ИМПУЛЬСНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКОЙ И БЕСКОНЕЧНОЙ ИМПУЛЬСНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКОЙ В ПРОГРАММЕ MATLAB. In ЦИФРОВОЙ РЕГИОН: ОПЫТ, КОМПЕТЕНЦИИ, ПРОЕКТЫ (pp. 840-845).
21. Qadamova , Z. (2023). Python dasturida Listlar bilan ishlash. List metodlari. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1321>
22. Qadamova , Z. (2023). MODERN METHODS OF WORKING WITH SCHOOLCHILDREN WHO CANNOT LEARN. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/1322>
23. Qadamova, Z., & Sotvoldiyev, A. (2023). Ta'Lim Jarayoniga Innovatsion Ta'Lim Texnologiyalarini Qo'llashdagi Muammolar Va Ularni Rivojlantirish Omillari. *Golden Brain*, 1(27), 201-205.
24. Muhammadjonov, A., & TURLARI, T. S. Y. T. ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR. *Research and implementation.*–2023.20, 23.
25. TOJIBOEV, I., RAYIMJONOVA, O., ISKANDAROV, U., MAKHAMMADJONOV, A., & TOKHIROVA, S. МИРОВАЯ НАУКА. *МИРОВАЯ НАУКА Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (3), 26-29.
26. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). ANALYSIS OF THE FLOW OF INFORMATION OF THE PHYSICAL LEVEL OF INTERNET SERVICES IN MULTISERVICE NETWORKS OF TELECOMMUNICATIONS. *Мировая наука*, (3 (60)), 26-29.